

TARBIYASIZ ILM- XAVFLI QUROL***Ergashev Yoqub Yusupovich****Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining
2-bosqich tarix yo'nalishi talabasi**Yoqub10031981@gmail.com****Shoberdiyev Shodmon Aliqul o'g'li****Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining
2-bosqich tarix yo'nalishi talabasi**Shodmanshoberdiyev@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola zamonaviy jamiyatda ilm va tarbiya o'rtaqidagi o'ta muhim bog'liqlikni tahlil etadi. Muallif ilm-fanning insoniyat taraqqiyotidagi ahamiyatini yoritish bilan birga, tarbiyasiz qo'llanilgan bilim qanday ijtimoiy va axloqiy xavflarga olib kelishini tahlil qiladi. Maqolada tarixiy misollar, ma'naviy va axloqiy qadriyatlar orqali ilm va tarbiya uyg'unligining zarurligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: *ilm, tarbiya, axloq, ma'naviyat, yosh avlod, jamiyat, xavfli qurol, texnologiya, mas'uliyat, ma'rifat.*

Kirish: Ilm va tarbiya har qanday jamiyatning asosiy tayanchlaridan biridir. Ularning uyg'unligi insoniyat taraqqiyotining asosiy omili sanaladi. Biroq, agar ilm tarbiya bilan to'g'ri yo'naltirilmasa, u xavfli qurolga aylanishi mumkin. Bugungi kunda texnologik rivojlanish shiddat bilan davom etayotgan bir paytda, inson omili, xususan, axloqiy tarbiya masalasi yanada dolzarb bo'lib bormoqda.

Ilm nima va u qanday quvvat? Ilm - bu insoniyat tomonidan asrlar davomida to'plangan bilimlar majmui bo'lib, u kishilarning atrof-muhitni, jamiyatni va o'zini anglashida muhim vositadir. Ilm nafaqat fan-texnika, balki madaniyat, san'at, falsafa kabi sohalarda ham taraqqiyotning omilidir. Lekin ilm mustaqil holda insonni yetuk shaxsga aylantira olmaydi. U faqat yo'nalish olganida, ya'ni tarbiya bilan uyg'unlashganidagina ijobiy natijalar beradi.

Tarbiya va axloqning o'rni Tarbiya insonning ichki dunyosini, axloqiy mezonlarini shakllantiradi. Tarbiya oilada boshlanadi, mакtab va jamiyatda davom etadi. Tarbiyaning asosiy maqsadi insonda adolat, halollik, vatanparvarlik, boshqalarga hurmat kabi fazilatlarni shakllantirishdir. Tarbiyasiz inson bilimli bo'lsa ham, o'z bilimidan noto'g'ri maqsadlarda foydalanishi mumkin.

Tarbiyasiz ilmnинг tarixiy va zamonaviy misollari Tarixda ko'plab olimlar, ixtirochilar ilmiy kashfiyotlar qilgan. Biroq ularning ayrimlari insoniyatga foyda emas, balki zarar keltirgan. Masalan, kimyoviy va yadroviy quollar yaratilganida bu ilmiy

yutuqlar sifatida qabul qilingan. Lekin ularning noto‘g‘ri qo‘llanilishi millionlab begunoh odamlarning halokatiga sabab bo‘ldi. Zamonaviy texnologiyalar ham shunday: sun’iy intellekt, biologik texnologiyalar, internet tizimi katta imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Ammo agar bu bilimlar tarbiyasiz insonlar qo‘lida bo‘lsa, ular orqali ijtimoiy manipulyatsiya, axborot urushlari, inson sha’ni va erkinligiga tajovuzlar sodir bo‘lishi mumkin.

Ilm va tarbiya uyg‘unligi – yuksalish kafolati. Ilmni axloqiy qadriyatlar asosida o‘rgatish bugungi kunda eng muhim vazifalardan biridir. Shu boisdan, mакtab va oliv ta’lim muassasalarida faqat texnik bilim emas, balki ma’naviyat va axloq fanlari ham o‘qitilishi zarur. Ilmga ega bo‘lgan har bir inson jamiyat oldida javobgar ekanini anglamog‘i lozim. Buning uchun esa ta’lim-tarbiya jarayonida ma’rifiy va axloqiy tarbiya uzviy ravishda olib borilishi zarur.

Oila, mакtab va jamiyatning roli Oila inson tarbiyasining ilk maktabidir. Farzandning ilk qadamlari, so‘zlari, muomalasi aynan oilada shakllanadi. Maktab esa bu tarbiyani davom ettiradi va uni ilm bilan boyitadi. Jamiyat esa umumiy muhit sifatida bu jarayonni mustahkamlaydi. Shunday ekan, ilm va tarbiya bирgalikda amalga oshirilsa, biz haqiqiy yetuk, bilimli va axloqli avlodni kamol toptiramiz.

Xulosa: Tarbiyasiz ilm, aslida, hayotni qurish emas, uni buzishga xizmat qilishi mumkin. Shu bois ilm bilan birga tarbiyani ham ustuvor yo‘nalish sifatida qarash lozim. Har qanday jamiyatda ilm va tarbiya uyg‘unligi ta’milansa, u yerda taraqqiyot, tinchlik va baxt bo‘ladi. Inson o‘z bilimini ezgulik, adolat va insonparvarlik yo‘lida ishlatishi uchun, u avvalo tarbiyani qalbida barpo etishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.
2. G‘afur G‘ulom. Inson tarbiyasi haqida maqolalar.
3. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim to‘g‘risidagi qonuni.